e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/42tc5k76

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI DORIVOR O‘SIMLIK NOMLARINING KOGNITIV BELGILARI

Raximova Nigora Polvonnazirovna
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, katta o‘qituvchi, (PhD).
e-mail: nigorar487@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0002-1823-9952

Annotatsiya.

Maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi dorivor o‘simlik nomlarining kognitiv belgilari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. O‘zbek tilida shifobaxsh o‘simliklarga nisbatan qo‘llaniladigan obrazli ifodalar hamda ingliz tilidagi perifrazalar (herbal aspirin, herb of remembrance, plant of immortality, royal herb, king of herbs va boshqalar) misolida o‘simlik nomlarining shakllanishida ishtirok etuvchi motivatsion belgilar aniqlanadi. L. F. Pucileva va A. M. Letova tasniflari asosida fitonimlarning tematik, aksiologik va nominativ tamoyillari ko‘rib chiqiladi, tarkibida o‘simlik komponenti bo‘lgan frazeologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari yoritiladi. Tadqiqot natijasida ikkala tilda ham dorivor o‘simlik nomlarining yetakchi funksiyasi pragmatik ekanligi, bitta nom bir nechta belgini mujassamlashtirishi mumkinligi hamda bir xil voqelikni nomlashda turli tillarda turli belgilar asos bo‘lishi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: dorivor o‘simlik nomlari, fitonim, kognitiv belgi, perifraza, motivatsion belgi, nominatsiya, konnotatsiya, frazeologik birlik, lingvokulturologiya, qiyosiy tahlil.

КОГНИТИВНЫЕ ПРИЗНАКИ НАЗВАНИЙ ЛЕКАРСТВЕННЫХ РАСТЕНИЙ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Рахимова Нигора Полвонназировна
Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека, старший преподаватель, (PhD).

Аннотация.

В статье проводится сравнительный анализ когнитивных признаков названий лекарственных растений в узбекском и английском языках. На примере образных выражений, используемых для обозначения целебных растений в узбекском языке, а также английских перифраз (herbal aspirin, herb of remembrance, plant of immortality, royal herb, king of herbs и др.) выявляются мотивационные признаки, участвующие в формировании наименований растений. На основе классификаций Л. Ф. Пуцилевой и А. М. Летовой рассматриваются тематические, аксиологические и номинативные принципы фитонимов, раскрываются лингвокультурологические особенности фразеологических единиц, содержащих растительный компонент. В результате исследования установлено, что в обоих языках ведущей функцией названий лекарственных растений является прагматическая функция, одно наименование может объединять несколько признаков, а при обозначении одной и той же реалии в разных языках в основу номинации могут быть положены различные признаки.

Ключевые слова: названия лекарственных растений, фитоним, когнитивный признак, перифраза, мотивационный признак, номинация, коннотация, фразеологическая единица, лингвокультурология, сравнительный анализ.

COGNITIVE FEATURES OF MEDICINAL PLANT NAMES IN UZBEK AND ENGLISH

Raximova Nigora Polvonnazirovna
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, Senior Lecturer, (PhD).

Abstract.

The article presents a comparative analysis of the cognitive features of medicinal plant names in Uzbek and English. Using figurative expressions referring to medicinal plants in Uzbek and English periphrastic expressions (herbal aspirin, herb of remembrance, plant of immortality, royal herb, king of herbs, among others), the study identifies the motivational features underlying the formation of plant names. Based on the classifications proposed by L. F. Pucileva and A. M. Letova, the thematic, axiological, and nominative principles of phytonyms are examined, and the linguocultural characteristics of phraseological units containing plant-related components are explored. The findings indicate that the predominant function of medicinal plant names in both languages is pragmatic, that a single name may incorporate several features, and that

ISSN 3060-5059 (Online)

different languages may rely on different motivational features when naming the same referent.

Keywords: medicinal plant names, phytonym, cognitive feature, periphrasis, motivational feature, nomination, connotation, phraseological unit, linguoculturology, comparative analysis.

Kirish. Bugungi kunda butun dunyoda fitoterapiya va tabiiy dori vositalariga qiziqishning ortib borishi dorivor o‘simlik nomlarini lingvistik jihatdan tadqiq etish zaruratini kuchaytirmoqda. Dorivor o‘simlik nomlari faqat botanika yoki farmakologiya terminlari bo‘lib qolmay, balki xalqning tabiat haqidagi bilimlari, qadriyatlari va dunyoqarashini o‘zida aks ettiruvchi til birliklari hamdir. Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan har qanday nom inson ongida voqelikning qanday konseptuallashtirilganini ko‘rsatadi: nomlash jarayonida predmetning eng muhim deb idrok etilgan belgisi tanlanadi va til birligida mustahkamlanadi [7; 2].

O‘zbek tilshunosligida shifobaxsh o‘simlik nomlarining lingvistik xususiyatlari N. N. Mirjonov [9], A. Abdullayev, M. Gulyamov va O. Mishin [5] tomonidan o‘rganilgan. Rus va ingliz tillaridagi farmatsevtik leksikaning etimologik tahlili O. V. Razdorskayaning [4] ishlarida berilgan. Biroq o‘zbek va ingliz tillaridagi dorivor o‘simlik nomlarining kognitiv belgilari, xususan, ularni ifodalovchi perifrazalar va frazeologik birliklar qiyosiy-kognitiv aspektda yetarlicha tadqiq etilmagan [10].

Shifobaxsh o‘simlik nomlari tilimizda tub so‘z, sodda yasama, qo‘shma so‘z hamda boshqa tillardan o‘zlashgan atamalar shaklida uchraydi va xilma-xil variantlarda qo‘llaniladi. Bu holat ayrim tushunmovchiliklarga sabab bo‘lib, dorilar tarkibini yoritishda va o‘simliklarni bir-biridan farqlashda lotin tilidagi nomlarga murojaat qilishga majbur etadi. Shu bois dorivor o‘simlik nomlarini tizimli ravishda tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi – o‘zbek va ingliz tillaridagi dorivor o‘simlik nomlari hamda ularni ifodalovchi perifraza va frazeologik birliklarning kognitiv belgilarini aniqlash va qiyosiy tahlil qilish. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: o‘zbek tilidagi shifobaxsh o‘simliklarga oid obrazli ifodalarni to‘plash va tavsiflash; ingliz tilidagi dorivor o‘simlik perifrazalarining motivatsion asoslarini aniqlash; fitonimlarning mavjud tasniflarini qiyosiy material asosida ko‘rib chiqish; tarkibida o‘simlik komponenti bo‘lgan frazeologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarini yoritish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

G‘arb tilshunosligida XXI asrgacha fitonimik lug‘at asosan botanika nomenklaturasi nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. Buni botaniklar, tilshunoslar va flora ixlosmandlari tomonidan yaratilgan ko‘plab lug‘at va ma’lumotnomalar tasdiqlaydi [8]. Keyingi davrda esa fitonimlarning semantik, lingvokulturologik va kognitiv jihatlariga e’tibor kuchaydi.

Tilshunos L. F. Pucileva «o‘simlik» konseptining tasnifini quyidagi mezon va tamoyillarga ko‘ra taqdim etadi [3].

1. Tematik asosda. Antropomorf konnotativ ma’noga ega bo‘lgan fitonimlar:

– fitonimlarga bevosita aloqador bo‘lmagan lug‘aviy birliklar (o‘simliklarning nomlari ham, ularning qismlari ham): to‘qmoq – cudgel, yog‘och bo‘lagi – stock, xoda – pole, daraxt bo‘lagi – bar va hokazo;

– tashqi ko‘rinishi va holati bilan bog‘liq ma’noga ega fitonimlar (past bo‘y va nomutanosib holatni ifodalash uchun): palak yozolmagan o‘simlik – morel, shoxcha – pod, to‘nka – snag, stump;

– xarakter sifatlari va inson xatti-harakatini bildiruvchi fitonimlar: yovvoyi (mevali) o‘simlik – «uyatchan» – shy; eman, to‘nka – «befarq» – indifferent.

Antropomorf ma’noga ega bo‘lmagan konnotatsiyali fitonimlar: kichik qism – don – grain; yoshlar – kurtaklar – undergrowth, underbrush, underwood.

2. Aksiologik (qiymat) mezonlarga ko‘ra birinchi va ikkinchi guruhdagi fitonimlarning konnotativ ma’nolari meliorativ, pejorativ va neytral turlarga bo‘linadi. Fitomorfizm va metaforik noantropomorf fitoxarakteristika tarkibidagi konnotatsiyaning baholovchi komponenti (ko‘pincha hissiy komponent bilan birga) so‘zlovchiga nutq mavzusiga o‘z munosabatini obrazli ravishda ifodalash imkonini beradi [3; 9]. Hissiy komponentning rasmiy ko‘rsatkichi ko‘pincha kichraytiruvchi qo‘shimchalar (-cha) hisoblanadi: gulcha, bodringcha, daraxtcha, olmacha.

A. M. Letovaning dissertatsiya tadqiqotida nominativ, lingvomadaniy, folkloristik va frazeologik nuqtayi nazardan fitonimlar semantikasining tizimli tavsifi beriladi [1]. Ushbu ish mazkur tadqiqot doirasiga kiradi, chunki uning markazida dunyo folklor lisoniy manzarasining asosiy vakillaridan biri – semantik xususiyatlari metafora va konnotatsiya orqali voqelanadigan «fitonimlar» sohasi turadi. Asarda «o‘simlik» tushunchasining oltita nominativ tamoyili ajratiladi:

1. O‘simliklarning tashqi belgilariga asoslangan nominatsiyalar; bunda asosiy motivatsion belgi – rang (oq rang – qayin, olma daraxti; kulrang – qarag‘ay; qizil rang – bodrezak, do‘lana // white color – birch, apple; gray color – pine; red color – viburnum, rowan).

2. O‘simliklarning xossalari, ularning tabiatdagi faoliyat xususiyatlariga ko‘ra nominatsiyalar; asosiy motiv – o‘simlikning sirtqi (tashqi) xususiyatlari (o‘t, archa, boshoq // grass, spruce, ear).

3. O‘simliklarning o‘sish joyi va usuliga ko‘ra nomlari (to‘p, barg, oq qo‘ziqorin, qulupnay, asal qo‘ziqorin // lump, leaf, porcini mushroom, strawberry, honey mushroom).

4. O‘simliklarning kundalik hayotda foydalanilishiga ko‘ra nominatsiyalar (yog‘och, no‘xat, bug‘doy // wood, peas, wheat).

5. O‘simliklarning hidiga ko‘ra nomlari (smorodina // currant).

6. Meva (rezavor) xususiyatlariga ko‘ra o‘simlik nomlari [1].

Tadqiqot materiali sifatida dorivor o‘simliklar ensiklopediyalari, ingliz va o‘zbek tillaridagi ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar, xalq tabobatiga oid manbalar hamda frazeologik lug‘atlardan olingan misollar xizmat qildi.

ISSN 3060-5059 (Online)

Tadqiqotda qiyosiy-chog‘ishtirma, kognitiv-semantik, komponent tahlil, lingvokulturologik tahlil va tavsifiy metodlardan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O‘zbek xalq tabobatida va kundalik nutqda shifobaxsh o‘simliklar va giyohlar ko‘pincha obrazli, baholovchi ifodalar orqali tavsiflanadi. Quyida shunday ifodalardan namunalar keltiriladi:

– petrushka – tabiat yuborgan «tez yordam»: jigar uchun juda foydali, ovqat ko‘p iste’mol qilinganda hazmga yordam beradi, peshob haydovchi xususiyatga ham ega;

– moychechak – «shifochechak»;

– zirk – «dardlarga qarshi zirh»: 2670 yil muqaddam sopol taxtachalarga yozilgan kitoblarda zirk «qonni tozalovchi» vosita sifatida qadrlangan;

– atirgul moyi – «shifoning boyi», atirgul murabbosi – «dard davosi»;

– toshtikon – «dardlarga qalqon»;

– odamgiyoh (jenshen) – tindirmasi organizmni umumiy quvvatlovchi ta’sirga ega;

– steviya – «o‘zbeklashgan giyoh»;

– achchiqtosh – «nomi achchiq, shifosi shirin tosh», xalq tabobatida va tibbiyotda azaldan qo‘llanib kelinadi;

– chuchukmiya – qadimgi xitoylik shifokorlar uni go‘zallik va yoshlikni saqlovchi, «hayot ildizi» – jenshendan keyingi ikkinchi dori deb hisoblashgan;

– zig‘ir – «shimol tillasi», chunki u ko‘plab shifobaxsh xususiyatlarga ega;

– qo‘ziqorin – «ham oziq, ham shifo»;

– yantoq – «dardlarga to‘g‘anoq»;

– mosh – «tabib»;

– isiriq – «bosh shamollaganda isiriq kelar davoga»;

– medunitsa giyohi – «o‘pka malhami»;

– yorongul (geran) – «haqiqiy uy shifokori», xalq orasida «atirshoh» deb ham ataladi;

– yalpiz, limono‘t, valeriana – «tinchlantiruvchi giyohlar»: asablarni tinchlantiradi.

Ushbu misollar o‘zbek tilida dorivor o‘simliklarning konseptuallashuvida yetakchi kognitiv belgi – o‘simlikning shifobaxsh funksiyasi ekanini ko‘rsatadi: o‘simlik «tabib», «shifokor», «tez yordam», «qalqon», «zirh», «malham» kabi davolash va himoya obrazlari orqali idrok etiladi. Ko‘plab ifodalarning qofiya va so‘z o‘yini asosida qurilganligi (zirk – zirh, yantoq – to‘g‘anoq, moy – boy) ularning xalq og‘zaki ijodiga yaqinligini ko‘rsatadi.

Ingliz tilida ham dorivor o‘simliklar ko‘pincha perifrazalar orqali nomlanadi. Masalan, medunitsa giyohi quyidagicha tavsiflanadi: «Pulmonaria officinalis, common names lungwort, common lungwort, Mary’s tears or Our Lady’s milk drops, is a herbaceous rhizomatous evergreen perennial plant of the genus Pulmonaria, belonging to the family Boraginaceae» [4]. Ya’ni medunitsa giyohi xalq orasida Mary’s tears yoki Our Lady’s milk drops perifrazalari bilan ataladi. Bunda o‘simlik nomi diniy-madaniy obraz bilan bog‘lanadi.

Zarchava (kurkuma) o‘simligi healing spice, ya’ni «shifobaxsh ziravor» perifrazasi bilan qo‘llaniladi: «Turmeric itself has also been known to be a “healing spice” and has been used to help many ailments».

Ingliz tilida moychechak herbal aspirin («o‘simlik aspirini») perifrazasi bilan ifodalanadi: «Described as “herbal aspirin”, chamomile is one of the leading herbal remedies worldwide» [8]. Moychechak bosh og‘rig‘i va turli og‘riqlarga davo bo‘lgani, ya’ni aspiringa o‘xshash ta’sirga ega bo‘lgani sababli uni tabiiy aspirin deb ham atashadi: «How strong is the evidence base behind “nature’s aspirin”?» [6]. Bu misolda nomlashning asosi – o‘simlikning funksional (davolovchi) belgisi.

Bibariya (rozmarin) o‘simligi ensiklopediyada quyidagicha ta’riflanadi: «Known as “herb of remembrance”, rosemary also has long been tied to legends and traditions» [9]. Qadim zamonlardan beri bu xushbo‘y o‘t xotirani yaxshilash xususiyatiga ega deb ishonilgan. Ehtimol, shuning uchun bibariya adabiyot va folklorda sodiqlik hamda xotira timsoliga aylangan. Boshqa bir manbada u nafaqat xotira, balki do‘stlik va muhabbat timsoli sifatida ham tilga olinadi: «Rosemary is traditionally known as the herb of remembrance and friendship. Also known as Mary’s mantle and compass weed, rosemary is a lovely, sweet scented, shrubby perennial in Mediterranean countries…» [5].

Cat’s ear o‘simligi haqida shunday deyiladi: «Dandelions are so similar to cat’s ears (Hypochoeris) that cat’s ears are also known as “false dandelions”» [6]. Bu o‘simlik momaqaymoqqa o‘xshaganligi sababli false dandelion, ya’ni «soxta momaqaymoq» deb perifrazalashtirilgan. Bu yerda nominatsiyaning asosi – tashqi o‘xshashlik belgisi.

Oregano o‘simligi joy of the mountain («tog‘ quvonchi») deb perifrazalashtiriladi: «With a name derived from the Greek for “joy of the mountain”…» [9]. Ushbu perifraza o‘simlikning o‘sish joyi belgisiga asoslangan.

Ismaloq barcha xalqlarda keng iste’mol qilinadi, uning foydalari ko‘p, xususan, immunitetni mustahkamlaydi. Ingliz ensiklopediyasida unga quyidagicha ta’rif beriladi: «The myth about spinach and its high iron content may have first been propagated by Dr. E. von Wolf in 1870, because a misplaced decimal point in his publication led to an iron-content figure that was ten times too high. In 1937, German chemists reinvestigated this “miracle vegetable” and corrected the mistake» [4].

Mo‘jizaviy o‘simliklardan yana biri – aloe vera. Qadimgi misrliklar uni «abadiylik o‘simligi» deb atashgan: «2000 years ago, the Greek scientists regarded Aloe vera as “the universal panacea”. The Egyptians called Aloe “the plant of immortality”. Today, the Aloe vera plant has been used for various purposes in dermatology» [6]. Bu perifraza boshqa manbalarda ham uchraydi: «According to a study published in the Indian Journal of Dermatology, in ancient Egypt, they called Aloe vera the “plant of immortality”» [9]. «Nine health benefits and medical uses of Aloe vera» sarlavhali maqolada

ISSN 3060-5059 (Online)

esa bu o‘simlik «ajoyib o‘simlik» deb atalgani izohlanadi: «Aloe vera, sometimes described as a “wonder plant”, is a short-stemmed shrub. Aloe is a genus that contains more than 500 species of flowering succulent plants» [5].

Rayhonning barcha xalqlar tabobatida foydali va shifobaxsh deb topilgani ma’lum. Ingliz tadqiqotchilari uni turli perifrazalar bilan ifodalaydi. Masalan, ensiklopediyada u royal herb deb ataladi: «Basil has a long history of use, being known as the “royal herb” in ancient Greece, and employed in various cultures not only for culinary but also medicinal and religious use» [4]. Boshqa manbada king of herbs, ya’ni «giyohlar shohi» perifrazasi qo‘llaniladi: «It is also called the “king of herbs” and the “royal herb”. The name “basil” comes from Greek βασιλικόν φυτόν (basilikón phutón), “royal/kingly plant”» [8]. Bu holda nominatsiya etimologik asosga ega bo‘lib, o‘simlikning yuqori qadri aksiologik belgi sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘simlik va giyohlarni ifodalovchi perifrazalar so‘z boyligini oshirishga va nutqda takrorlarning oldini olishga xizmat qiladi. Bunday tasviriy ifodalar badiiy va publitsistik matnlardan tortib tibbiy matnlar va og‘zaki nutqqacha keng qo‘llaniladi. Ular ko‘pincha so‘zlashuv jarayonida yangidan yaratiladi: nafaqat tilshunoslar, balki har bir til egasi ham yangi perifrazaning muallifi bo‘la oladi.

Tilni o‘rganayotgan kishilarni majoziy va ifodali nutq namunalari bilan tanishtirishning muhim manbalaridan biri frazeologik birliklar fondidir. Quyida biz qiyoslanayotgan tillarning so‘z-tushuncha apparatidagi o‘xshashlik va farqlarni, o‘simliklarning insoniy fazilatlar, yashash sharoiti yoki tabiat hodisalarini qanday aks ettirishini ko‘rib chiqamiz. Zamonaviy ingliz tilida tarkibida o‘simlik nomi bo‘lgan iboralarga quyidagilar kiradi (1-jadval).

1-jadval

Tarkibida o‘simlik komponenti bo‘lgan ingliz frazeologizmlari va ularning o‘zbekcha muqobillari

Ingliz tilida	**O‘zbek tilida**
every bean has its black	oyda ham dog‘ bor; hech kim aybsiz emas
grass does not grow under one’s feet	vaqtni behuda sarflamaydi
to expect an elm-tree to yield pears	qarag‘ochdan nok kutmoq; behuda umidlarga berilmoq
apple of discord	nizo urug‘i, janjal sababi
give smb. beans	kimnidir qattiq koyimoq, jazolamoq
the apple of Sodom	sirti yaltiroq, ichi qaltiroq; tashqi ko‘rinishi aldamchi narsa
the rotten apple injures its neighbours	bitta qora qo‘y butun podani buzadi
the apple of one’s eye	ko‘z qorachig‘i, ko‘zining nuri
forbidden fruit	taqiqlangan meva

O‘zbek va ingliz xalqlari mentalitetining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi, ularga xos madaniy tushunchalarni mujassamlashtirgan, tarkibida o‘simlik komponenti bo‘lgan frazeologik birliklar lingvokulturologiya nuqtai nazaridan ham o‘rganilgan [2]. Misol tariqasida quyidagi birliklarni keltiramiz (2-jadval).

2-jadval

Komponent tarkibi mos kelmaydigan frazeologik birliklar

Ingliz tilida	**O‘zbek tilida**
no herb will cure love	ishq dardiga davo yo‘q
a bur in the throat	tomoqqa tiqilgan narsa (hayajondan gapira olmaslik)

Ushbu misollardan ko‘rinib turibdiki, ingliz tilidagi o‘simlik komponenti o‘zbekcha muqobilda har doim ham saqlanmaydi.

Qiyoslanayotgan tillarda insonning aqliy qobiliyatlari ham o‘simlik nomlari ishtirok etgan frazeologik birliklar orqali ifodalanadi: as green as grass – juda tajribasiz, hayotdan bexabar odam, yangi ishchi; pull up trees – katta yutuqlarga erishmoq. Insonning holatini ifodalovchi «o‘simlik» tushunchasiga oid frazeologik birliklar ham mavjud: like a squeezed lemon – siqilgan limondek, juda charchagan odam.

Shake like a leaf frazeologik birligi bir nechta sinonimlarga ega: to tremble like a leaf; to tremble like an aspen; to tremble in every limb. U o‘zbek tiliga «bargdek titramoq», «tog‘terakdek qaltiramoq», «butun vujudi bilan titramoq» deb tarjima qilinadi va «qo‘rquvni boshdan kechirmoq, dahshatdan o‘zini yo‘qotmoq» ma’nosini ifodalaydi. Bu ibora shamolda titrayotgan tog‘terak barglarini kuzatish asosida paydo bo‘lgan.

Ingliz tilidagi ayrim frazeologik birliklar o‘zbek tilidagilarga o‘xshaydi, lekin ularning ba’zilari boshqa obrazlar orqali ifodalanadi (3-jadval).

3-jadval

Obrazi qisman mos keladigan birliklar

Ingliz tilida	**O‘zbek tilida**
a rose between two thorns	ikki erkak orasida o‘tirgan go‘zal ayol (ikki tikan orasidagi gul)

ISSN 3060-5059 (Online)

Ingliz tilida	**O‘zbek tilida**
a tree grows in one place (xalq maqoli)	daraxt bir joyda o‘sadi
while there is no wind, the branches of the tree do not move (xalq maqoli)	shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi

Ta’kidlash joizki, «o‘simlik» tushunchasini o‘z ichiga olgan frazeologik birliklar o‘zbek va ingliz tillarida juda ko‘p, biroq ularning leksik ma’nosi va tarkibi har doim ham bir-biriga mos kelmaydi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ikkala tilda ham:

1. Dorivor o‘tlar nomlarining funksional ahamiyati jihatidan eng ko‘p uchraydigan turlari orasida asosiysi pragmatik funksiyadir.
2. Bitta o‘simlik nomi bir emas, balki ikki yoki undan ortiq belgini o‘zida jamlashi mumkin.
3. Nomlarning semantik o‘zgarishi xalq uslubiga qaraganda ilmiy uslubga kamroq xosdir. Bir xil voqelik bir tilda bir nechta leksema bilan ifodalanishi mumkin, bunda har safar tabiiy faktning turli motivatsion belgilari yangilanadi.
4. Motivatsiyasi to‘liq yoki qisman yo‘qolgan nomlar ham qayd etiladi.
5. Nominatsiyaning tasodifiy xususiyatini belgilaydigan real dunyo belgilarining subyektiv aks etishi ham kuzatiladi.
6. Bir xil voqelikni nomlash uchun turli tillarda turli belgilar asos bo‘lishi mumkin.
7. Alohida qo‘shma otlarning semantikasi ibora elementlarining to‘g‘ri va ko‘chma ma’nolariga asoslanishi mumkin.

O‘simliklar nominatsiyasida fitomorfologik xususiyatlar eng dolzarb hisoblanadi, chunki ular o‘simlik shoxlari, barglari, mevalari va ildizlarining tuzilish xususiyatlarini aks ettiradi. Bu tamoyil tahlil qilinayotgan har ikki tilning fitonimlarida namoyon bo‘ladi. Tashqi ko‘rinishi o‘xshash o‘simliklar, garchi bir oilaga mansub bo‘lmasa-da, nominativ jihatdan aniq farqlanmaydi [5].

XULOSA

O‘tkazilgan tahlil o‘zbek va ingliz tillarida dorivor o‘simlik nomlarining shakllanishida bir qator umumiy kognitiv belgilar ishtirok etishini ko‘rsatdi. Har ikki tilda o‘simlikning shifobaxsh (funksional) belgisi yetakchi o‘rinda turadi: o‘zbek tilida u «tabib», «shifokor», «qalqon», «malham» kabi obrazlar orqali, ingliz tilida esa herbal aspirin, healing spice, wonder plant, universal panacea kabi perifrazalar orqali ifodalanadi. Shu bilan birga, nominatsiyada tashqi o‘xshashlik (false dandelion), o‘sish joyi (joy of the mountain), aksiologik baho (royal herb, king of herbs) hamda diniy-madaniy assotsiatsiyalar (Mary’s tears, Our Lady’s milk drops, herb of remembrance) kabi belgilar ham muhim rol o‘ynaydi.

Farqli jihat shundaki, o‘zbek tilidagi obrazli ifodalar ko‘proq xalq og‘zaki ijodiga xos qofiya va so‘z o‘yiniga tayanadi, ingliz tilidagi perifrazalar esa ko‘pincha antik va xristian madaniyati bilan bog‘liq. Tarkibida o‘simlik komponenti bo‘lgan frazeologik birliklarda ingliz tilidagi o‘simlik obrazi o‘zbekcha muqobilda har doim ham saqlanmaydi. Bu esa har bir xalqning dunyoni o‘ziga xos konseptuallashtirishidan dalolat beradi.

Shifobaxsh o‘simlik nomlarining tilimizda turli shakl va variantlarda qo‘llanilishi ularni tizimli tadqiq etish, ilmiy asoslarini ishlab chiqish hamda dorivor o‘simlik nomlariga oid lug‘atlar va elektron ilovalar yaratish zaruratini ko‘rsatadi. Tadqiqotni korpus materiallari asosida davom ettirish va dorivor o‘simlik nomlarining tarixiy taraqqiyotini o‘rganish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Маслова В. А. Лингвокультурология: учебное пособие. – Москва: Академия, 2001. – 208 с. – URL: https://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Linguist/maslova/index.php. gumer.info
2. Раздорская О. В. Этимологический анализ фармацевтической лексики в английском и русском языках // Учёные записки Орловского государственного университета. Серия: Гуманитарные и социальные науки. – 2018. – № 4 (81). – С. 184–187. – URL: https://oreluniver.ru/public/file/archive/4-81.pdf. oreluniver.ru
3. Dębowiak P., Waniakowa J. Semantic Motivation of Plant Names as a Part of Their Etymology // The Landscape of Lexicography / ed. by A. Villalva, G. Williams. – Lisboa: Centro de Linguística da Universidade de Lisboa; Aveiro: Centro de Línguas, Literaturas e Culturas da Universidade de Aveiro, 2019. – P. 173–200. – URL: https://ruj.uj.edu.pl/entities/publication/8ddd7276-824e-4a5a-8c57-3c659161127d. ruj.uj.edu.pl
4. Кириленко Е. И. Феномен медицины в горизонте культуры: теоретические основания анализа и этнокультурная спецификация. – Томск: Издательство ИОА СО РАН, 2008. – 330 с. – URL (muallif bibliografiyasi): https://amarus.info/кириленко-елена-ивановна/. Сайт Ассоциации медицинских антропологов
5. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago; London: University of Chicago Press, 1980. – 242 p. – URL: https://obnb.uk/p7366086-metaphors-we-live-by. obnb.uk
6. Мазнев Н. И. Энциклопедия лекарственных растений. – 3-е изд., испр. и доп. – Москва: Мартин, 2004. – 492, [3] с., [16] л. цв. ил. – URL: https://rusist.info/book/554584. книга 2004 года Структура курсовой
7. Mirjonov N. N. Shifobaxsh o‘simlik nomlarining lingvistik xususiyatlari // Scientific Progress. – 2022. – Vol. 3, № 2. – B. 214–223. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/shifobaxsh-o-simlik-nomlarining-lingvistik-xususiyatlari. cyberleninka.ru
8. Raximova N. P. O‘zbek va ingliz tillaridagi dorivor o‘simlik nomlarining kognitiv-semantik xususiyatlari: filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2025.